

“O‘ztransgaz” AJ
2026-yil “12” mart dagi 02/26 -son
Kuzatuv kengashi bayonnomasiga 2 ilova

**“O‘ZTRANSGAZ” AJ Komplayens-nazorat bo‘limining
NIZOMI**

Toshkent – 2026 yil

MUNDARIJA:

1. Umumiy qoidalar.....	3
2. Komplayens-nazorat bo'limining tashkiliy tuzilmasi.....	3
3. Komplayens-nazorat bo'limining asosiy maqsadi, vazifa va funksiyalari.....	5
4. Huquq va majburiyatlari.....	8
5. Mulk va mablag'lar	11

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2021-yil 8-sentabrdagi 3319-son "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'iga muvofiq Komplayens-nazorat bo'limining (bundan buyon matnda Bo'lim deb yuritiladi) maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1. Umumiy qoidalar:

1.1. Komplayens-nazorat bo'limi (Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat) o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, jamiyat rahbarining qarorlari, buyruqlari va farmoyishlariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

1.2. Ushbu Nizom komplayens-nazorat bo'limi faoliyatining asoslari, maqsadlari, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

1.3. Bo'lim faoliyati amaldagi qonunchilik doirasida, hech qanday tashqi ta'sirlarsiz, mustaqil faoliyat yuritish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

1.4. Nizomni talqin qilishda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Komplayens-nazorat obyektlari – Jamiyatning markaziy apparati va tarkibiy tuzilmalari, Jamiyat ta'sisichiligida bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalardir.

Tarkibiy tuzilma – MGQB lar, GEOSI va "Urganchtransgaz" UK, "Transgazinjineri" MCHJ, Transgazmaxsusqurilish AJ va tuzilmasida bo'lgan barcha korxonalar.

1.5. Ushbu Nizom Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

2. Komplayens-nazorat bo'limining tashkiliy tuzilmasi:

2.1. Komplayens-nazorat bo'limi (keyingi o'rinlarda — bo'lim) "O'ztransgaz" AJ (keyingi o'rinlarda — Jamiyat) ijroiya apparatining tarkibiy

bo'linmasi hisoblanadi hamda bevosita Jamiyatning Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi, mustaqil faoliyat yuritadi va Kuzatuv kengashiga hisobdor hisoblanadi.

2.2. Komplayens-nazorat bo'limi boshlig'i Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) bilan birgalikda lavozimga tayinlanadi, hamda uni lavozimidan ozod etish Agentlik bilan kelishilgan holda, Kuzatuv kengashining taqdimnomasiga asosan amalga oshiriladi.

2.3. Bo'lim o'z faoliyatini Jamiyatning boshqa departamentlari, bo'limlari va xizmatlari bilan, shuningdek, o'ziga yuklatilgan funksional vazifalarni bajarish doirasida tizim korxonalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlar hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan uzviy hamkorlikda amalga oshiradi.

2.4. Komplayens-nazorat bo'limining tuzilmasi va shtat birliklari soni Jamiyat tomonidan, bo'lim boshlig'ining tavsiyasiga ko'ra tasdiqlanadi.

2.5. Jamiyatning tarkibiy tuzilmalari komplayens-nazorati xodimlari "O'ztransgaz" AJ Komplayens-nazorat bo'limiga bo'ysunadi va hisobdor hisoblanadi. Tarkibiy tuzilma komplayens-nazorat xodimini ishga qo'yish va ishdan olish komplayens-nazorat bo'limi boshlig'i tomonidan boshqaruv raisiga kiritilgan taklif asosida amalga oshiriladi.

2.6. Bo'lim va tarkibiy tuzilma xodimlari Jamiyat mablag'lari hisobidan maxsus o'quv kurslarida hamda qo'shimcha malaka va tajribasini oshirish uchun o'qitiladi.

2.7. Komplayens-nazorat bo'limi va tarkibiy tuzilma xodimlarini har chorakda rag'batlantirish bo'lim boshlig'ining Jamiyat boshqaruv raisiga kiritgan tavsiyasiga ko'ra amalga oshiriladi.

2.8. Bo'limda xodimlar o'rtasida majburiyatlar bo'lim boshlig'i tomonidan qonunchilikka muvofiq belgilanadi hamda ularning taqsimlanishi Jamiyat boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlanadi.

2.9. Bo'lim va tarkibiy tuzilma xodimlari o'rindoshlik asosida boshqa tarkibiy bo'linmalardagi lavozimlarda ishlashlari mumkin emas.

2.10. Bo'limning mavjud shtat birliklarini qisqartirishga yoki ularni Jamiyatning boshqa tarkibiy tuzilmalariga qayta taqsimlashga yo'l qo'yilmaydi.

3. Komplayens-nazorat bo'limining asosiy maqsadi, vazifa va funksiyalari:

3.1. Komplayens-nazorat bo'limining asosiy maqsadi Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ISO37001:2016/2025 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, tashkilot tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan muvofiqlik munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta'minlashdan iborat.

3.2. Quyidagilar Komplayens-nazorat bo'limining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- Jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish;
- Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;
- Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish;
- Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarida kadrlar siyosatini amalga oshirish jarayonida mahalliychilik, tanish-bilishchilik, guruhbozlik hamda ishga qabul qilishda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish choralari ko'rish.
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish;
- Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalari mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ta'magirlik va poraxo'rlik holatlari yuzasidan ma'lumotlar kelib tushganda, Jamiyat boshqaruv raisini xabardor qilgan holda vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda tegishli choralarni ko'rish.

Bo'lim va uning tarkibiy tuzilmalari xodimlari o'ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- a) Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini takomillashtirish sohasida:
- Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi hamda tasdiqlash uchun Jamiyat boshqaruv raisiga kiritadi;
- Jamiyat faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki me'yoriy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;
- Jamiyat tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarini ularning Jamiyatda olib borilayotgan korrupsiyaga qarshi siyosatga muvofiqligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazaridan baholaydi hamda xulosalar beradi;
- Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan aniq takliflarni O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga kiritadi.

b) Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

- Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi hamda korrupsiyaviy xavfi yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantiradi;
- o'xshash huquqbuzarliklarning sodir etilish ehtimolini baholash maqsadida boshqa tashkilotlardagi korrupsiyaviy holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;
- maxsus aloqa kanallari orqali kelib tushadigan korrupsiyaviy murojaatlarni tahlil qiladi va ularning belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini nazorat qiladi;
- xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq yuritilishini nazorat qiladi;
- davlat xaridlari va shartnomaviy munosabatlarda manfaatlar to'qnashuvi hamda kontragentlarning ishonchliligini tekshirish yuzasidan monitoring olib boradi;
- xodimlarga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;
- korrupsiya haqida xabar berish kanallari faoliyati natijalarini tahlil qiladi va tegishli axborotni yetkazadi;
- Jamiyatda korrupsiyaviy holatlarni aniqlash maqsadida xodimlar va aholi o'rtasida anonim so'rovlar o'tkazadi;
- intizomiy choralar qo'llanilishida ularning mutanosibligi va yetarliligini nazorat qiladi;

- xizmat tekshiruvlari natijalarini tahlil qiladi va tizimni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;
 - har chorakda hamda zaruratga ko'ra Jamiyat boshqaruv raisiga korrupsiyaga qarshi ishlar holati yuzasidan axborot kiritadi.
- c) Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida:
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Jamiyatga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;
 - Jamiyat tizimida ISO 37001:2016/2025 standarti talablariga muvofiqlikni ta'minlaydi;
 - xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarining korrupsiyaga qarshi yo'nalishini ishlab chiqishda ishtirok etadi;
 - korrupsiyaviy xavfi yuqori lavozimlar uchun o'quv materiallarini ishlab chiqadi;
 - korrupsiyaga qarshi treninglarning o'tkazilishini va xodimlarning unda ishtirok etishini nazorat qiladi;
 - targ'ibot tadbirlarini tashkil etadi va ularda ishtirok etadi;
 - Jamiyatning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida korrupsiyaga qarshi yo'nalishdagi ma'lumotlarning yangilanib borilishini ta'minlaydi;
 - xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qonunchilik va ichki hujjatlarga rioya etilishini monitoring va nazorat qiladi;
 - korrupsiyaviy holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va ularni tashkil etadi;
 - odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi;
 - amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar taklif etadi.
 - Jamiyat va tarkibiy tuzilmalar faoliyatini rivojlantirishga, ishni yuqori unumdorlik asosida tashkil etishga va sog'lom ishchi muhitini yaratishga to'sqinlik qiladigan barcha salbiy omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshiradi.
- d) korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida boshqa organ va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish:

- korrupsiyaga qarshi madaniyatni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;
 - qonunchilikka muvofiq xorijiy tashkilotlar bilan axborot almashinuvida ishtirok etadi;
 - korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;
 - korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi;
 - Boshqaruv raisini xabardor qilgan holda hamda Jamiyat ichki me'yoriy hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning vakolatli vakillariga Jamiyat va uning korxonalarida korrupsiya holatlarini oldini olish yoki shunday holatlar yuzasidan surishtiruv tadbirlarini o'tkazishlarida ko'maklashish;
 - Tarkibiy tuzilmalarda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining faoliyat yuritishi ustidan nazoratni tashkil qilish;
 - Bo'lim qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi;
- e) Komplayens-nazorat bo'lim xodimlari zimmasiga ularning vazifalari va funksiyalari bilan bog'liq bo'lmagan topshiriqlar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

4. Huquq va majburiyatlari:

4.1. Bo'lim o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

4.2. O'zi faoliyat yuritayotgan Jamiyat va tarkibiy tuzilmalardan xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallar, xulosalar, statistik va boshqa ma'lumotlarni olish;

4.3. Xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalar xodimlaridan zarur yordam, ma'lumotlar, tushuntirishlar, hujjatlar va boshqa zarur materiallarni belgilangan tartibda so'rash va olish, shuningdek ulardan yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishda ko'maklashishni talab qilish;

4.4. Bo'lim o'z faoliyatida xizmat tekshiruvlari, nazorat va tahliliy tekshiruvlar o'tkazish davomida tegishli apparat va tarkibiy tuzilmalardan mutaxassislarni jalb qilish huquqiga ega;

4.5. Moliyaviy va komplayens-nazorati obyektlarining elektron ma'lumotlar bazalari, axborot tizimlari va barcha turdagi dasturiy ta'minotlari (shu

ma'lumotlar bazalari, axborot tizimlari va barcha turdagi dasturiy ta'minotlari (shu jumladan, 1C va boshqa dasturlar), shuningdek Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining axborot tizimlariga belgilangan tartibda ulanish, ulardan ma'lumotlarni olish va foydalanish huquqi;

4.6. Xarid jarayonlariga tegishli bo'lgan barcha hujjatlarni, shu jumladan shartnomalar, texnik topshiriqlar, tender hujjatlari, hisob-kitoblar va boshqa zarur materiallarni nazorat obyektlaridan hamda Jamiyatning tarkibiy bo'linmalaridan belgilangan tartibda bevosita talab qilish va olish, ularni o'rganish hamda tahlil qilish;

4.7. Xarid jarayonida korrupsiyaviy xavflar yoki qonunbuzilish holatlari aniqlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-270-son Farmon bilan berilgan vakolatdan foydalangan holda xarid jarayonini to'xtatish yoki kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha majburiy ko'rsatmalar kiritish amaliyotini keng qo'llash;

4.8. O'rganishlar va tekshiruvlar natijalari bo'yicha aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan faktlar, ularning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlari, aybdor shaxslar hamda yetkazilgan zarar miqdori to'g'risida Jamiyat boshqaruv raisiga belgilangan tartibda ma'lumotlar kiritish, zarur hollarda tegishli taklif va xulosalar taqdim etish;

4.9. Jamiyat tizimi xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan belgilangan tartibda o'rganishlar va xizmat tekshiruvlarini o'tkazish, ushbu jarayon doirasida zarur hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish, holatlarni har tomonlama tahlil qilish hamda yakunlari bo'yicha tegishli xulosa va takliflar tayyorlash;

4.10. Jamiyat boshqaruv raisiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar kiritish, bunda amaldagi tizimni tahlil qilish, mavjud muammolar va xavf-xatarlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yuzasidan aniq choralar ishlab chiqish hamda tizim samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar taqdim etish;

4.11. Jamiyat markaziy apparati xodimlarining faoliyatiga samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) belgilanishini va boshqa barcha turdagi rahbarlashtirishlarini nazorat qilish, shuningdek, departament va mustaqil bo'limlar tomonidan samaradorlik ko'rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan ustamalarni tegishli lavozimlar uchun belgilangan miqdorlarini manfaatlar to'qnashuviga yo'l

qo'ymaslik maqsadida, ustamalarni qayta ko'rib chiqish, haqiqiy erishilgan natijalarning asosliligini tekshirish va muvofiqligini ta'minlash yuzasidan choralar ko'rish va takliflar kiritish

4.12. Bo'lim faoliyati doirasida Jamiyat tizimi va uning tarkibiy tuzilmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish yuzasidan yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish, ularning ijrosini nazorat qilish, belgilangan muddatlarda bajarilishi yuzasidan ma'lumot va hisobotlar talab qilish hamda zarur hollarda qo'shimcha ko'rsatmalar kiritish;

4.13. Komplayens-nazorat bo'limi tomonidan Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shgan Jamiyat va tarkibiy tuzilma xodimlari va faol fuqarolarni rag'batlantirish maqsadida Jamiyat boshqaruv raisiga takliflar kiritish;

4.14. Har chorakda, keyingi chorak birinchi oyida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to'g'risidagi choraklik hisobotni Jamiyat Kuzatuv kengashi va boshqaruv raisiga taqdim etish.

4.15. Bo'lim xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish Agentlik bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

4.16. Bo'lim faoliyatining natijadorligi Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorlik va maqsadli ko'rsatkichlariga erishish natijalariga asosan baholanadi.

4.17. Nazorat tuzilmasi faoliyati samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlariga erishish ustidan nazorat Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

5. Mulk va mablag'lar:

5.1. Bo'lim faoliyati uchun zarur xarajatlar "O'ztransgaz" AJning xarajatlar rejasida ko'zda tutiladi.

5.2. Jamiyat va tizim korxonalari rahbariyati tomonidan komplayens-nazorat bo'limi jamiyat tuzilmalari xodimlariga xizmat xonalari, jixozlar, ish yuritish, tashkiliy-texnik, aloqa va avtotransport vositalari hamda boshqa zarur buyumlar bilan ta'minlaydi.